vojlanishi bilan bir qatorda kiberxavflar ham ortib bormoqda. Shu sababli xavfsizlikni alohida vositalar orqali emas, balki integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida tashkil etish zarur hisoblanadi. Kerio Control tizimi firewall, VPN, foydalanuvchi autentifikatsiyasi, trafik monitoringi va kontent filtrlash funksiyalarini yagona platformada birlashtirib, tashkilotlarda markazlashgan axborot xavfsizligi boshqaruvini ta'minlaydi. Ushbu tizim tarmoq infratuzilmasini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, ruxsatsiz kirishlarni cheklash hamda xavfsizlik siyosatini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Natijada Kerio Controldan foydalanish tashkilotlarda axborot xavfsizligi darajasini oshiradi, administrator ishini soddalashtiradi va korporativ ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi hamda himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). G.A.Kukharev Biometric systems. Methods and tools for identifying a person's personality. SPb.: Polytechnic, 2001, p. 240.

(2). Burge M. and Burger W. (1998). Ear Biometrics. Biometrics: Personal Identification in a Networked Society, p. 273–286.

(3). Fazilov Sh.Kh., Mirzaev N.M., Djumaev T.S. Formation of a set of representative features of images of a face and ears in problems of personality identification. Proceedings. Russian Scientific and Technical Society of Radio Engineering, Electronics and Communications named after A.S.Popova//12th International Conference and Exhibition. Reports. Series: Digital Signal Processing and Its Application Issue: XII-2, p. 62–65. DSPA-2010. Moscow, Russia.

(4). Fazilov S.X., Mahkamov A., Jumayev T.S. (2018). Algorithm for extraction of identification features in ear recognition. In Informatics: problems, methodology, technologies, p. 3–7.

Musaxanova Gulnora Mavlyanovna (TDIU "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi dotsenti (PhD); gulnaramusahanova02@gmail.com),

Sultonmurotova Shaxrizoda Muzaffar qizi (TDIU tayanch doktoranti; shakhrizoda2223@gmail.com)

BO'LAJAK RAHBARLARDA IQTISODIY KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak rahbarlarning iqtisodiy kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, kommunikativlik kompetensiyasining rahbar kasbiy faoliyatidagi o'rni, malakali boshqaruvchi bo'lishda ingliz tili kommunikatsiyasining afzalliklari va tahlil qilingan ilmiy manbalarga asoslanib iqtisodiy kommunikativ ko'nikmalarning integrativ modeli taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kommunikativ, iqtisodiy, boshqaruv, integratsiya, model,rahbarlik, ingliz tili, komponent.*

Мусаханова Гулнора Мавляновна (доцент кафедры «Экономическая теория» ТГЭУ, PhD; gulnaramusahanova02@gmail.com),

Султанмуротова Шахризода Музаффар кизи (докторант ТГЭУ; shakhrizoda2223@gmail.com)

ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития экономико-коммуникативных навыков у будущих руководителей, роль коммуникативной компетентности в профессиональной деятельности руководителя, а также преимущества владения английским языком в процессе становления квалифицированного менеджера. На основе анализа научных источников предлагается интегративная модель экономико-коммуникативных навыков.*

Ключевые слова: *компетенция, коммуникативный, экономический, управление, интеграция, модель, руководство, английский язык, компонент.*

Musakhanova Gulnora Mavlyanovna (Associate professor of the department of Economic theory, TSUE, PhD; gulnaramusahanova02@gmail.com),

Sultonmurotova Shakhrizoda (Doctoral student, TSUE; shakhrizoda2223@gmail.com)

AN INTEGRATIVE MODEL FOR DEVELOPING ECONOMIC COMMUNICATIVE SKILLS IN FUTURE LEADERS

Annotation. *This article examines the development of economic communicative skills in future leaders, the role of communicative competence in a leader's professional activity, and the advantages of English-language communication in becoming an effective manager. Based on the analysis of scientific sources, an integrative model of economic communicative skills is proposed.*

Keywords: *competence, communicative, economic, management, integration, model, leadership, English language, component.*

Kirish. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida yuqori malakali mutaxassislarga katta talab qo‘yilgan. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va raqamli iqtisodiyotning shakllanishi zamonaviy boshqaruv tizimlariga tubdan yangicha yondashuvni talab etmoqda. Xususan, rahbar shaxsiga qo‘yiladigan talablar an’anaviy doiradan chiqib, ko‘p komponentli va kompleks xarakter kasb etmoqda. Endilikda samarali rahbar faqatgina boshqaruv mexanizmlarini biluvchi yoki iqtisodiy jarayonlarni tahlil qila oluvchi mutaxassis emas, balki u yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lgan, turli madaniyatlararo muhitda erkin faoliyat yurita oladigan va global axborot oqimida samarali muloqot qila oladigan shaxs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ingliz tilida professional darajada kommunikatsiya qilish qobiliyati zamonaviy liderlikning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Ilmiy adabiyotlarda rahbarlik tushunchasi ko‘p qirrali fenomen sifatida talqin qilinadi. Jumladan, liderlik va boshqaruv psixologiyasi sohasidagi yirik amerikalik olimlardan biri Gari Yukl tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, rahbarlik bu tashkilot a’zolariga ta’sir ko‘rsatish orqali umumiy maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan ijtimoiy-psixologik jarayondir. Ushbu jarayonning markazida esa aynan kommunikatsiya turadi, chunki har qanday boshqaruv qarori, topshiriq yoki strategiya muloqot orqali uzatiladi va amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, kommunikatsiya rahbarlik faoliyatining nafaqat vositasi, balki uning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi [5].

Bugungi global biznes muhitida ushbu talablar yanada kuchaymoqda. Birinchidan, xalqaro hamkorlikning kengayishi natijasida turli mamlakatlar vakillari o‘rtasidagi professional muloqot zarurati ortib bormoqda. Ikkinchidan, ingliz tili xalqaro biznes, ilm-fan va texnologiya sohalarida asosiy ishchi til sifatida mustahkam o‘rin egallagan. Bu esa rahbarlardan ingliz tilida erkin va samarali muloqot qila olishni talab etadi. Uchinchidan, iqtisodiy qarorlar tobora global kontekstda, ya’ni, xalqaro bozorlar, transmilliy kompaniyalar va global tendensiyalarni hisobga olgan holda qabul qilinmoqda. Bunday sharoitda kommunikatsiya nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki strategik boshqaruv instrumentiga aylanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda ingliz tilidagi kommunikativ ko‘nikmalarni ham uyg‘un va integrativ tarzda rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki aynan shu ikki komponentning o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy rahbarning raqobatbardoshligi, moslashuvchanligi va global maydonda samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak rahbar kadrlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratilgan qator qaror va farmonlar mavjud bo‘lib“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-qarori oliy malakali kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ularni zamonaviy kompetensiyalar, xususan, iqtisodiy va kommunikativ ko‘nikmalar bilan qurollantirish zarurligini asoslaydi [1], [2]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar bo‘lajak rahbarlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, ularning strategik fikrlashi, iqtisodiy qaror qabul qilish qobiliyati hamda samarali kommunikatsiya olib borish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ushbu maqolada taklif etilayotgan integrativ model rahbar kadrlarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish va ularni global mehnat bozori talablariga mos holda tayyorlashga muayyan darajada hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak rahbar kadrlarning iqtisodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va tizimda professional rahbar kadrlar tayyorlash maqsadida bir qator qaror va farmonlar qabul qilingan bo‘lib, ular amalda tadbiq etib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6079-farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli iqtisodiyotga o‘tish va boshqaruv tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Mzkur farmon bo‘lajak rahbarlarda raqamli va kommunikativ ko‘nikmalarni integrativ rivojlantirish zaruratini asoslaydi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yildagi PF–73-farmoni pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ularning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini xalqaro darajaga olib chiqishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Bu farmon ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirib, iqtisodiy tafakkur, strategik fikrlash va kommunikativ ko‘nikmalarni, ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Shu sababli farmon bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy-kommunikativ kompetensiyalarni integrativ rivojlantirish modelini shakllantirish uchun muhim normativ asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

2020–2022-yillarda ilgari surilgan Prezident tashabbuslari doirasida oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar sezilarli darajada kuchaytirildi. Jumladan, magistratura va doktoranturaga qabul jarayonida xorijiy til bo'yicha xalqaro sertifikatning majburiy etib belgilanishi hamda oliy ta'lim muassasalarida fanlarni ingliz tilida o'qitishni bosqichma-bosqich joriy etish bu boradagi muhim islohotlar sifatida namoyon bo'ldi.

Rahbar kommunikatsiyasi bo'yicha so'nggi tadqiqotlar ham mazkur masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Liu, Chambers va Moore tomonidan 2023-yilda *The Leadership Quarterly* jurnalida chop etilgan maqolada so'nggi ellik yil davomida rahbar kommunikatsiyasiga oid tadqiqotlar umumlashtirilgan. Mazkur ishda rahbarlar matn, nutq va video orqali qanday muloqot qilishi, kommunikatsiyaning xodimlar, tashkilot va manfaatdor tomonlarga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Demak, kommunikatsiya rahbarlikning yordamchi elementi emas, balki boshqaruv samaradorligini belgilovchi markaziy omildir [6].

Rahbar kompetensiyalariga oid tadqiqotlarda esa lider shaxsi ko'p komponentli tizim sifatida o'rganiladi. Xususan, inson resurslarini boshqarish va liderlik kompetensiyalari bo'yicha tadqiqotchilar Paula Kristina Nunes Figeyredo, Mariya Joze Sousa tomonidan ishlab chiqilgan integrativ kompetensiya modeli rahbar salohiyatini to'rt asosiy o'lcham – intellektual, boshqaruv, ijtimoiy va emotsional kompetensiyalar orqali izohlaydi. Ushbu yondashuv bo'lajak rahbarlarni tayyorlashda iqtisodiy tafakkur, strategik qaror qabul qilish, jamoa bilan ishlash, muzokara olib borish va emotsional barqarorlikni bir butun tizimda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi [7].

Ingliz tili bugungi kunda xalqaro biznes muhitida yetakchi aloqa vositasiga aylanib, liderlik faoliyatining muhim elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Chen va Wu Fortune 500 kompaniyalari misolida olib borgan tadqiqotlarida ingliz tilining liderlik samaradorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ularning ta'kidlashicha, ingliz tilini yaxshi egallagan rahbarlar turli madaniy muhitlarda jamoalar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar olib borish va global biznes sharoitida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni muvaffaqiyatli ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, ingliz tilini bilish rahbarlarga yangi bozorlar bilan aloqalarni kengaytirish va tashkilotning ta'sir doirasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [8].


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo'lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ, jumladan, ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirish maqsadida ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshirilib, ScienceDirect bazasidagi liderlik, kommunikatsiya va global biznes muhitida ingliz tilining o'rni bilan bog'liq zamonaviy tadqiqotlar o'rganildi. Bu orqali mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida rahbarlik jarayoni o'zaro bog'liq iqtisodiy, kommunikativ va shaxsiy kompetensiyalar majmui sifatida tahlil qilindi. Bu yondashuv ingliz tilida samarali kommunikatsiya qilishning rahbar faoliyatidagi o'rnini aniqlashga imkon berdi.

Bundan tashqari, integrativ modellashtirish usuli yordamida turli liderlik va kompetensiya nazariyalari uyg'unlashtirilib, bo'lajak rahbarlarda iqtisodiy va ingliz tilidagi kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yagona model ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida bo'lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ kompetensiyalarni, xususan, ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy adabiyotlar hamda zamonaviy tadqiqotlar o'rganildi. Jumladan, liderlik, kommunikatsiya va kompetensiyaviy yondashuv masalalariga bag'ishlangan pedagogik, psixologik va sotsiologik yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur mavzu doirasida olimlar va soha mutaxassislarining ilmiy qarashlari, yozma va og'zaki fikr-mulohazalari umumlashtirilib, ularning amaliy faoliyatdagi ifodasi kuzatildi.

Mazkur tadqiqot natijasida bo'lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ, ayniqsa ingliz tilida professional muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan integrativ model ishlab chiqildi. Ushbu model zamonaviy global va raqamli muhitda rahbar shaxsini shakllantirishning kompleks mexanizmini ifodalaydi hamda bir-biri bilan uzviy bog'liq komponentlar tizimidan iborat.

1-rasmda iqtisodiy-kommunikativ boshqaruv rahbarlarida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan integrativ model va unga ta'sir etuvchi omillar aks ettiriladi. Modelning asosini globallashuv, iqtisodiyot hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji tashkil etib, ular rahbar faoliyatiga yangi talablarni qo'yadi. Bu sharoitda rahbarlardan nafaqat iqtisodiy bilim va boshqaruv ko'nikmalari, balki ingliz tilida samarali muloqot qilish qobiliyati ham talab etiladi. Tashqi muhit omillari modelda rag'batlantiruvchi va cheklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasm. Bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning integrativ modeli.

Model markazida integrativ tizim bo‘lib, u tuzilma, jarayon va ishtirokchilar komponentlari orqali ifodalanadi. Tuzilma ta’lim dasturlari, zamonaviy metodlar va resurslar asosida rahbarlarni tayyorlashning institutsional poydevorini yaratadi. Jarayon komponenti qaror qabul qilish, hamkorlik va ayniqsa ingliz tilidagi professional muloqot orqali samaradorlikni oshiradi. Ishtirokchilar esa talaba, o‘qituvchi va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlab, amaliy tajriba shakllanishiga xizmat qiladi.

Modelning muhim qismi – kompetensiyalar bloki bo‘lib, u uch yo‘nalishni qamrab oladi: iqtisodiy-strategik (tahlil, resurslarni boshqarish, qaror qabul qilish), kommunikativ (muzokara, axborot almashinuvi, ingliz tilida muloqot) va shaxsiy (liderlik, emotsional intellekt, o‘zini boshqarish). Ushbu komponentlarning uyg‘unligi samarali, raqobatbardosh rahbarlarni shakllantiradi.

Umuman olganda, integrativ model bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ, jumladan, ingliz tilidagi kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qilib, ularning global mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida rahbar kadrlar samaradorligi alohida bilimlardan ko‘ra, iqtisodiy va kommunikativ kompetensiyalarning integratsiyalashgan ri-

vojiga bog‘liq. Xususan, ingliz tilida professional muloqot qila olish rahbar uchun global muhitda muhim strategik ustunlik yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarni shakllantirish tizimli yondashuv asosida – tashqi muhit, ta’lim tizimi va boshqaruv jarayonlari o‘zaro bog‘liqligida amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda iqtisodiy tafakkur, kommunikativ kompetensiya va shaxsiy rivojlanish uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib, bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ, ayniqsa ingliz tilidagi kompetensiyalarni integrativ rivojlantirish ularning kasbiy muvaffaqiyati va global raqobatbardoshligini ta’minlaydi

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak rahbar kadrlarning iqtisodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ushbu yo‘nalishda quyidagi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, bo‘lajak rahbarlarni tayyorlashda iqtisodiyot, menejment, kommunikatsiya va ingliz tilini alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish Shu maqsadda integrativ o‘quv dasturlarini joriy etish taklif etiladi. Bu yondashuv talabalarda iqtisodiy fikrlash va professional muloqotni birgalikda rivojlantirib, ularni real boshqaruv faoliyatiga tayyorlaydi.

Ikkinchidan, rahbarlar uchun kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim bo‘lib, buning uchun debat, taqdimot, role-play va muzokara mashg‘ulotlaridan ko‘proq foydalanish lozim. Ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilishni rivojlantirish talab etiladi. Bu talabalarda fikrni aniq yetkazish, jamoani boshqarish va global muhitda samarali aloqa o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoni. https://lex.uz/

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 606-qarori https://lex.uz/

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF–6079-farmoni. https://lex.uz

(4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2025) “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–73-farmon. https://lex.uz

(5). Yukl G.A. (2013). *Leadership in organizations* (8th ed.). Pearson Education.

(6). Liu E.H., Chambers C.R., & Moore C. (2023). Fifty years of research on leader communication: What we know and where we need to go. The Leadership Quarterly. https://doi.org/10.1016/j.leaqua.2023.101678

(7). Figueiredo P.C.N., Sousa M.J., & Tomé E. (2022). Integrative model of the leader competences. European Journal of Training and Development, 47(5/6), p. 533–564. https://doi.org/10.1108/EJTD-04-2021-0055

(8). Chen L., & Wu J. (2023). English language proficiency as a determinant of global leadership effectiveness. Leadership & Organization Development Journal, 44(3), p. 245–260.

(9). Musaxanova, G.M. (2023). Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies), 11(2), 408–414.

(10). Sultonmurotova S.M. (2025). Effectiveness and development prospects of digital-pedagogical integration in English language education. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(5), p. 16–20.

(11). Dr. Shirisha Deshpande, Dr.A.Vijayalakshmi, Dr.Ajatashatru Samal, Poornima U., Kotehal Dr. Chethan kumar K,&Dr.B.Muthukrishnan. (2024). The Role of Effective Communication in Leadership: A Comparative Analysis of English Language Skills and Management Strategies. Evolutionary studies in imaginative culture, 1434–1441. https://doi.org/10.70082/esiculture.vi.1513.

Otajonova Mexriban Shanazarovna (Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Urganch, O‘zbekiston; E-mail: atajanovam1972@gmail.com)

“ISHONCH” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDAGI MAZMUNIY-STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada “ishonch” konseptining ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatidagi mazmuniy-struktur xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilinadi. Konseptning yadroviy va periferik semalari, lingvomadaniy komponentlari, leksik-frazeologik ifodalanish vositalari hamda baholovchi-pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida “ishonch” konsepti har ikki tilda umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsada, uning mazmuniy ko‘lami, madaniy assotsiatsiyalari va nutqiy voqelanishida milliy o‘ziga xosliklar mavjudligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *ishonch, konsept, lingvokulturologiya, semantika, pragmatika, ingliz tili, o‘zbek tili.*